

Xatamova Mehribon Tolibjon qizi

Jurnalistika fakulteti Filologiya va tillarni

o'qitish: o'zbek tili yo'naliishi 3 kurs talabasi

XXI asrda Internet insoniyat uchun kasbiy, biznes, ijodiy va shaxsiy g'oyalar hamda qarashlarni ifoda etishga ko'mak beruvchi axborot maydoniga aylandi. Ayniqsa, karantin davrida global tarmoq deyarli barcha turdag'i va sohalardagi faoliyatini onlayn formatda amalga oshirishning eng maqbul vositasi bo'lib xizmat qildi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va Internetning maxsus kommunikativ makon sifatida paydo bo'lishi an'anaviy hamda ommaviy kommunikatsiyalarga tubdan ta'sir ko'rsatmasdan qolmadı.

Asrimizning so'nggi o'n yilligida axborot hajmining misli ko'rilmagan o'sishi kuzatildi. Tarmoq texnologiyalarining rivojlanishi axborot sohasida keskin o'zgarishlar ro'y berishiga sabab bo'ldi. Butun dunyo qog'ozsiz, elektron axborot davriga qadam qo'ydi. Shu boisdan, D.Saidqodirova: "Dunyo kompyuter tarmog'i o'zida cheksiz axborot va ma'lumotlarni jamlaydi. Internet bu turli-tuman ma'lumotlar omboridir. Ushbu ma'lumotlارlardan foydalanish uchun omborga kirish imkoniyatiga ega bo'lish yetarlidir. Aynan shu imkoniyat Internet foydalanuvchilarini o'ziga jalb etadi" – deb hisoblaydi[1].

O.V.Lutovinova o'z asarlarida zamonaviy dunyo hayotining ajralmas qismi bo'lgan yangi dunyo deb kiber makon konsepsiyasini taqdim etadi, chunki bu dunyoda Internet foydalanuvchisi bo'lgan barcha kommunikativ hodisalar ishtirokida sodir etgan bo'ladi[2].

Internet sahifalarida I.Shamsiyavanning "Avlodlar nazariyasi xususida" maqolasida "Ijtimoiy tarmoq va platformalar, ayniqsa, hozirgi kunda nihoyatda ommaviylashib ketgan turli xil ilova va servislar O'zbekiston internet foydalanuvchilarini ham chetlab o'tmasligi tabiiy edi», -deb ta'kidlaydi[3]. Shunday ekan, ijtimoiy tarmoqlar butun dunyo bo'y lab odamlarni bir-biriga bog'lash va ularning fikrlari bilan o'rtoqlashish uchun yaratilgan bo'lsa-da, ushbu platformalar endi biznesni qurish va o'zini targ'ib qilish uchun keng vositaga aylandi.

Hozirgi vaqtida Internetda mingdan ortiq ijtimoiy tarmoqlar mavjud bo'lib, ularidan yiriklari 100 ga yaqin kompaniyalarni tashkil etadi. Bugungi kunda eng ommalashganlari deb MySpace, Facebook, Instagram, Telegram va Twitter kabilarni aytish mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanish darajasi o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilib, har kuni biz yangi ijtimoiy tarmoq turlarining yaratilayotganligini kuzatmoqdaqamiz. Internet-muloqoti murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lganligi sababli so'nggi bir necha yil davomida virtual kommunikativ makonning ma'lum

jihatlari bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar qilinganligiga qaramasdan, hanuzgacha lingvistik bilimlarning eng kam o'rganilgan sohalaridan biri bo'lib qolmoqda.

E.I.Goroshkoning fikricha, hozirgi vaqtida "Internet tilshunosligi"da maxsus intizom paradigmاسini shakllantirish haqida gapirish mumkin[4]. Internet matnlarini diskurs, janr, lingvokultologik va kognitiv jihatdan o'rganish bilan birgalikda rasmiy va norasmiy bo'lган tarmoqlardagi sharhlarni stilistik jihatdan tadqiq qilish ham muhim sanaladi. Bu sohada jahon tilshunosligida quydagi ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Синельникова Л.Н. (Ялта, Россия). Дискурс троллинга – коммуникация без табу; Степанов В.Н. (Ярославль, Россия). Трансгрессивность как сущностная характеристика современного медиатекста в мировой сети; Тошович Б. (Грац, Австрия). Стилистический интернет; Смирнова Н.В. (Москва, Россия). Жанрово-стилистическая специфика новости в интернет-пространстве; Николаева А.В. (Москва, Россия). Кликбейт: к определению понятия; Тошович Бранко (Грац, Австрия). Грамматическая интернет-стилистика; Негрышев А.А. (Владимир, Россия). Виртуальная реальность интернета: к методологии лингвистического исследования; Басовская Е.Н. (Москва, Россия). Жанр интернет-рецензии: взаимодействие стилевых стихий; Барышева С.Ф. (Москва, Россия). Виды и способы маркирования стилевых и стилистических произносительных явлений в блогосфере интернета; Николаева А.В. (Москва, Россия). Блоготекст и особенности его трансформации на современном этапе; Смирнова Н.В. (Москва, Россия). Лингвостилистические теории гипертекста; Николаева А.В. (Москва, Россия). Стилистика социальных сетей; Ефремов В.А. (Санкт-Петербург, Россия). Наивная лингвистика в интернете: культура речи; Клушина Н.И., Барышева С.Ф., Николаева А.В., Малыгина Л.Е. (Москва, Россия). Стилистические доминанты интернет-коммуникации; Лопухов С.В. (Москва, Россия). Прагмалистические особенности интернет-мемов kabilar. O'zbek tilshunosligida esa bu soha bo'yicha yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmagan. U shbu soha bo'yicha D.M.Teshaboeva, G.X.Baqiyeva, M.I. Isroil, K.T. Irnazarov, Z.T.Tohirovlarning ilmiy ishlari orqali ma'lumot olishimiz mumkin.

Amerikalik olimlar Breg, Kollinz, Fernbek va boshqalar Internet kommunikativ aloqa qilishning zamonaviy vositasi, shu bilan birga ijtimoiy-psixologik xususiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. V.Vinogradov va A.Flores esa, Internet tilning semiotik tizimining funksional vazifasi ta'sirida yuzaga kelganligini aytadi. Mardjo esa, tabiiy tillar va yangi informatsion va kompyuter texnologiyalari kiber makonda kommunikativ aloqa aralashuvda bir-biri bilan chambarchas bog'lanadi, deb fikr yuritadi[5].

G. Gradoselskaya ta'kidlashicha, inson o'z ishini, yashash joyini o'zgartirishi mumkin, uning ijtimoiy mavqeい o'zgarishi mumkin, lekin uning qarindoshlari, do'stlari, hamkasblari bilan aloqlalar "to'ri" qoladi. Sotsiologiyada bu aloqlalar "ijtimoiy tarmoqlar" tushunchasi bilan belgilanadi. Inson yo kosmosda va martaba zinapoyasida

2 – SON / 2022 - YIL / 15 - OKTYABR

harakat qiladi, yoki o'zining yoki boshqalarning resurslarini siljitadi - butun hayotni tarmoq orqali harakat qilish kabi tasavvur qilish mumkin[6].

Internet bu yagona standart asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog'iadir. Respublikamizda milliy Internet-segmentini rivojlantirish bo'yicha ishlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2002-yil 6-iyundagi 200-son qarori bilan tasdiqlangan "2002-2010-yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi"ga asosan amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сайдқодирова Д.С. Инглиз ва ўзбек тилларида интернет терминларининг лингвистик тадқиқи. Филол.фанлари номзоди...дис..-Тошкент, 2017. – С.10
2. Лутовинова О. В. Виртуальный дискурс как одно из направлений в исследовании киберпространства / О. В. Лутовинова // Вестник Московского государственного областного университета. – Серия «Лингвистика». – 2009. – № 1. – С. 26-32.
3. Шамсиева И. Ижтимоий медиаплатформалар таъсиридаги янги авлод ёхуд интернет заарлими? (Интернет: 2020 йил 14 июль).
4. Горошко, Е. Лингвистика Интернета: Формирование дисциплинарной парадигмы/Е.Горошко.–Режим доступа:<http://www.textology.ru/article.aspx?aId=76>. – 2012.– 03 февраля.
5. <https://mykonsppekts.ru/> (Internet: 2021-yil 9 mart).
6. Градосельская, Г. В. Анализ социальных сетей / Г.В. Градосельская – М.,: Изд. Наука, 2001. – С.21.